

O`RTA OSIYO VA O`ZBEKISTONDA SUV RESUSLARIDAN
FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH

Komiljonova Sevinch Xamidbek qizi
Ekologiya yònalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi paytda O`zbekiston Respublikasida suv resurslaridan mukammal foydalanish bilan bog`liq masalalar katta ahamiyat kasb etmoqda. Ko`p yillar mobaynida yirik gidrotexnik qurilishlari amalga oshirilib, uning asosiy qismlari gidroenergetika, suv ta`minoti, sug`orish va boshqa suv xo`jaligi majmuasi qatnashuvchilarining ehtiyojini qondiradi. Yerni sug`orish va meliorativ holatini yaxshilash loyihalari hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda.

Kalit so`zlar: YUNESKO, kontinental iqlimli , ekologik-iqtisodiy , Kollektor-zovur ixtisoslashtirish , bug`lanish koeffitsienti .

Ushbu maqolamizda, hozirgi kunda suv muammolari eng asosiy va murakkab ilmiy-texnik biri hisoblanadi. Shu sohada YUNESKO tomonidan keng Xalqaro gidrologik dastur tuzilgan bolib, bu dasturni amalga oshirish uchun yuzdan ortiq mamlakatlardan olimlar ishtirok etishmoqda. Suvning zararli ta`sirlarini bartaraf etish bo`yicha tadbirlar ishlab chiqilmoqda, xo`jaligi tizimlari yaratilmoqda. Daryo oqimlarini alohida suv havzalari ichida hamda ular oraligada qayta taqsimlash masalalariga katta e`tibor berilmoqda. Mahalliy suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ifloslanishdan muhofaza qilish muammolari hukumatimiz rahbarlari diqqat markazida turibdi. Bu muammolarning o`z yechimini topishi suv va qishloq xo`jaligining rivojlanishida yangi yirik bosqichni tashkil etishiga aminmiz.

O`rta Osiyo respublikalari daryolarining suvlari Tyan-Shon va Pomir-Oloy tog` tizmalarida vujudga keladi. Bu suvlarning umumiy hajmi 136 mlrd m. kub bo`lib, shundan 110,4 mlrd m. kubi (81,2%) O`rta Osiyo hududida vujudga keladi; 25,6 mlrd m. kub suv Afg`oniston va Eron mamlakatlari hududidan kelib qo`shiladi. Daryolarning ko`pchilida oqadigan suvlar qor-yomg`ir suvlari bo`lib, ozrog`i muzlik-qor suvlaridir.

Sayyoramizda suv qobig`ining paydo bo`lishi, shakllanishi, uning suv muvozanatini o`rganib, undagi suv zaxiralari, resurslari, ularning hududiy taqsimlanishi va tarqalishi bilan tanishib quyidagi xulosalarga keldik: suv qobig`ining chuchuk suv zaxiralari juda cheklangan bolib , u umumiy suv zaxirasining 2 foiziga yaqin miqdorini tashkil qilib, shundan 94 foizi qutblardagi qoplama muzliklarda va qit`alardagi to g ii mintaqalar muzliklarida joylashgan. Chuchuk suv resurslari sayyoramiz qit`alari va qit`alar hududi bo'yicha o`ta notekis taqsimlangan va tarqalgan, ya`ni boshqacha aytganda, odamlar zich joylashgan va xalq xo`jaligi

tarmoqlari yaxshi rivojlangan hududlarda chuchuk suv resurslari juda oz tarqalgan bo'lib, aholi kam joylashgan va xalq xo'jaligi tarmoqlari unchalik rivojlanmagan hududlarda chuchuk suv resursi katta miqdorda tarqalgan. Yuqoridagi xulosalar hozirgi zamon dunyo miqyosidagi va alohida mintaqalardagi suv xo'jalik muammolarining paydo bo'lishiga sabab bo'moqda.

Suv resurslaridan foydalanishni hisobga olish, rejalashtirish va samarali foydalanish muammolari. O'zbekiston qur'og'ochil, kontinental iqlimli, chöl va chala chöl zonalari hamda to'g' va to'g' oldi hududlaridan tashkil topgandir. Bizdagi o'rtacha yo'gin miqdori 400 mm ni tashkil qilgan holda, bug'lanish koeffitsienti 2500-2700 mm ni tashkil etishi suv resurslarining ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini bildiradi.

Suv resurslarini tejash, muhofaza qilishning, ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va ahamiyati. O'rta Osiyo suv resurslari agarda uni tejab ishlatilsa, 70- 80 million kishiga yetishi mumkin, BMT ning ma'lumotlariga ko'ra 2030 yillarga borib O'rta Osiyoda shuncha aholi yashaydi. O'rta osiyo aholisi 50 million kishiga yetmasdan Orol dengizining qurishi, suv tanqisligining sezilishi, bu eng avvalo suv resurslaridan tejamisiz foydalanish isrofgarchilikning nihoyatda yuqori ekanligini bildiradi. Suvdan noto'g'ri foydalanish: quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda: Suv resurslarining tanqisligi, Orol dengizi va ko'pgina tabiiy ko'llarning qurishi, mavjud su'gorilayotgan yerlarning shörlanishi, hosildorliknig keskin pasayishi. biologik xilma- xillikning kamayishi va mavjud suv resurslar suv manbalarini hamda uning atrofida ekologiyaning izdan chiqishi va ifloslanishi, suv resurslarida tuz miqdorining ortishi, aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlay olmasligimiz.

O'zbekiston suvni tejash va muhofaza qilish zaruriyati yuqoridagi muammolarni yechish maqsadida quyidagilarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Su'gorish tizimining tizimi va o'lchamlarini zamonaviy su'gorish texnikasi bilan mustahkamlash orqali uning samaradorligini oshirish, kollektor-zovur suvlarini tashlab yuborishni tartibga solish, ulardan unumli foydalanishni yo'lga qöyish, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligida kam suv sarflaydigan ösimliklarga ixtisoslashtirish, suv manbalarining ifloslanishini oldini olish va boshqalar.

Xulosa qilib ,aytganda suv resurslardan to'g'ri foydalanishi va suvga to'g'ri munosabatda bölishi kerak. Suv resurslarini ifloslanishi yoki undan noto'g'ri foydalanish bu kelajakda suv resurslarining kamayishiga yoki yillar ötib yo'q bölib ketishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda nafaqat O'rta Osiyo balki butun yer yuzasida chuchuk suv muammosi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu mauammoni bartaraf etish uchun har bir inson suvdan to'g'ri foydalanishga va uni ifloslantirmaslikka ahamiyat berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Rasulov A.R., Xikmatov F.X. O'zbekiston suv resurslari, ularni tejash va muhofaza qilish yo'llari. – Toshkent, 1989. – 21b.
2. Z.A Artukmetov, H.Sh Sheraliyev “ Qishloq xo'jaligida suv resurslardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish” T-2007
3. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish T.Öqituvchi 1991
4. Tilovov T.Ekologiyaning dolzarb muammolari. Qarshi 2003.